



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2024 yil 10-oktabr, № 207 (8830)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



## TOSHKENT SHAHRI QULAY SHAROITGA EGA MEGAPOLISGA AYLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-oktabr kuni  
Toshkent shahrining bosh rejasi loyihasi bilan tanishdi.

Bugungi kunda shahar hududi 43 ming 822 gektar, aholi soni 3 milliondan ziyod. Kelgusida bu miqyas yanada oshib borishi tayin. Shu bois Toshkent shahrining 2045-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan bosh rejasi loyihalashtirildi.

Davlatimiz rahbari bu boradagi ilk ishlanmalar bilan 2022-yilda tanishgan edi. Unda berilgan ko'rsatma va tavsiyalar asosida loyiha takomillashtirildi. "ToshkentboshplanLITI" korxonasi Singapur, Buyuk Britaniya, Turkiya, Germaniya, Xitoy va Niderlandiya kompaniyalari bilan hamkorlikda puxta ish olib borildi.

Loyihaga ko'ra Toshkent shahri hududi 3 ta zonaga ajratiladi. Konservatsiya zonasida madaniy meros binolari, tarixiy joylar, uylar va yashil hududlar o'zgarishsiz qoladi. Rekonstruksiya zonasida master-rejalar asosida qo'shimcha qurilishlar qilish mumkin bo'ladi. Renovatsiya zonasida eskirgan uy-joy, binolar o'rnida yangi qurilishlar

va ta'mirlash amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ekologiya va transport muammolari dolzarb bo'lib bormoqda. Xususan, oxirgi o'n yilda Toshkentdagi havo harorati o'rtacha 1 daraja ko'tarilgan. Ba'zi kunlarda atmosferadagi ifloslantiruvchi moddalar me'yordan ortiq bo'lmoqda. Avtomashinalar ham kun sayin ko'payib, yo'l harakati qiyinlashib bormoqda.

Shu bois yangi bosh rejada bu masalalar inobatga olingan. Jumladan, Toshkent shahri va uning atrofidagi yashil hududlar 3 karra ko'paytirilib, 25 ming gektarga yetkazilishi belgilanmoqda. Bu orqali aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yashil maydon hozirgi 3 kvadrat metrdan 6 kvadrat metrga oshadi.

Shaharsozlik talabiga ko'ra aholi o'z yashash joyidan eng yaqin bog'cha, maktab, shifoxona, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarigacha ko'pi bilan 15 daqiqada yetib bora olishi kerak. Shu bois jamoat transporti tarmog'i kengaytirilib, bog'lamalar va bekatlar

ko'paytiriladi. Yangi yo'llar qurilib, metrobus yo'nalishlari tashkil etiladi.

So'nggi yillardagi o'sish natijasida Toshkentda elektr energiyasi, suv va oqova infratuzilmasi yuklama bilan ishlayapti. Bosh reja loyihasida bu quvvatlarni oshirish manbalari ham hisob-kitob qilingan.

Bosh reja tasdiqlangach uning xaritalari Shaharsozlik kadastri geoxorobot tizimida hamda Toshkent shahar hokimligi veb-saytida ochiq ma'lumot sifatida joylashtiriladi.

Mutasaddilar bosh rejaning shu kabi asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha axborot berdi. Davlatimiz rahbari Toshkent shahrini kamida 7,5 million odam yashashi va ishlashi uchun qulay sharoitga ega yirik megapolisga aylantirish zarurligini ta'kidladi. Toshkent viloyatining Qibray, Zangiota, Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq va Toshkent tumanlarini poytaxt bilan yaxlit aglomeratsiya asosida rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

## YANGI AEROPORT BUXORONING TURISTIK IMRONIYATLARINI KENGAYTIRADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-oktabr kuni  
Buxoro xalqaro aeroporti qurilishiga oid  
taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda aeroportlarni modernizatsiya qilish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Shu yilning o'zida Shahrisabz, Qo'qon va Zomin aeroportlari ishga tushirildi, Namangan va Andijonda esa modernizatsiya boshlandi.

Aeroportlar boshqaruviga xususiy sektor jalb qilinayotgani ham o'z samarasini berayapti. Xususan, Samarqand xalqaro aeroporti xususiy boshqaruvga berilib, modernizatsiya qilingach parvozlar va yo'lovchilar soni 5 barobar oshgan.

Shunday salohiyat Buxoroda ham bor. Lekin u yerdagi aeroport aholi va turistlar talabiga javob bermayapti. Mazkur aeroport soatiga 400 nafar yoki yiliga 1 million yo'lovchiga xizmat ko'rsata oladi xolos. Bu — talabga nisbatan juda past. Parvozlarni boshqarish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish tizimlari, kutish-kuzatish zallari eskirgan qatnovlarni ko'paytirish imkonini cheklayapti. Aksariyat sayohat Buxoroga borish uchun Toshkent, Samarqand yoki Urganch aeroportlariga qo'nishga majbur bo'lyapti. Masalan, 9 oyda Buxoroga tashrif buyurgan 1 milliondan ziyod xorijiy turistlarning 95 foizi poyezd yoki avtomobilda borgan.

Viloyatda mehmonxonalar tarmog'i, ziyorat turizmi rivojlanib bormoqda. Kelgusi uch yilda Buxoroga turistlar oqimini 8 millionga yetkazish reja qilingan.

Shu bois joriy yil 31-mayda Prezidentimizning viloyatga tashrifi chog'ida Buxoro tumanida yangi xalqaro aeroport qurilishi boshlangan edi. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi ushbu loyiha doirasida jahon standartlariga mos aeroport tashkil etiladi. Soatiga 1 ming 200 nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Yo'lovchi va havo kemalariga servis sifatini oshirish orqali yangi xalqaro aviakompaniyalar jalb qilinadi.

Taqdimotda loyihaning texnik-iqtisodiy jihatlari to'g'risida axborot berildi. Davlatimiz rahbari yangi aeroportda o'tkazuvchanlik qobiliyatini 2 barobar oshirib, soatiga 8 ta samolyot kelish-ketishiga imkoniyat yaratish zarurligini ta'kidladi. Terminalning qulayliklari, ichki va tashqi qiyofasi bo'yicha tavsiyalar berildi.

O'ZA.

## SAYLOV — 2024

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda O'zbekiston Ekologik partiyasi nomidan "Tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanish — bosh maqsadimiz" sarlavhali maqola e'lon qilinmoqda.

3-sahifaga qarang.

## Fikr

## ERTANGI KUN UCHUN MAS'ULLIK

Ma'lumki, saylovlar xalq xohish-irodasini demokratik tarzda to'g'ridan-to'g'ri, hech qanday to'siqsiz ro'yobga chiqaruvchi muhim ijtimoiy-siyosiy tadbir hisoblanadi. Shu bois keyingi davrda yangi O'zbekistonda xalq hokimiyati, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash hamda saylov tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bunda saylovlarni xalqaro andozalar asosida uyushtirish va o'tkazish asosiy talab bo'lib, shu maqsadda qator xalqaro hujjatlarda belgilangan prinsiplar milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilinganini aytish zarur. Zero, hozirgi vaqtda xalqaro huquqning prinsip va normalarini hisobga olmasdan, milliy saylov qonunchiligini rivojlantirish va saylovlarni o'tkazishning aslo imkoniyati yo'q.

Shu o'rinda dunyo davlatlari tomonidan o'tkazib kelinayotgan bunday saylovlar jarayonida qo'llanib kelinayotgan xalqaro saylov standartlari universal deb atalishini ham eslatib o'tish joiz.

Ta'kidlash joizki, jamiyatni jipslashtiruvchi omillardan biri ham, insonlar uchun zaruriy choralarini belgilashda hamjihatlikni ifodalashning birdan-bir yo'li ham xalq fikrini, xohish-irodasini ovoz berish orqali aniqlash va inobatga olishdir. Buning muhim, samarali jihati qarorlar qabul qilishda yakka

SAYLOV  
2024  
27-OKTABR

MINING TANLOVIM — ODOB VATANIMI

shaxslar yoki jamiyatning ba'zi guruhlari emas, balki balog'at yoshidagi har bir inson bevosita o'z tanlovini amalga oshiradi.

Saylovlar ovoz berish yo'li bilan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish va boshqa ko'plab tuzilmalarga, boshqaruv jarayonlariga ta'sir etish vositasi hamdir. Saylov o'tkazish tartibi va qoidalari har bir davlatning Konstitutsiyasidan kelib chiqib belgilanadi hamda konstitutsiyaviy huquqlar doirasida amalga oshiriladi. Saylov tizimi, jumladan, saylov tartibi turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Unda aholi bevosita qatnashishi yo'li ularning belgilangan vakillariga ishtirok etishi mumkin.



## O'zbekiston Respublikasining QONUNI

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 16-iyulda qabul qilingan  
Cenat tomonidan 2024-yil 20-sentabrda ma'qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda yerga oid munosabatlarda tenglik va shaffoflikni ta'minlashga, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilishga hamda ularni bozor aktiviga aylantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga ijaraga oluvchi tomonidan ijaraga olingan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga bo'lgan o'z huquqlari va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazishning (qayta ijaraga berishning) huquqiy asoslarini belgilash hamda yer uchastkalarini berish shartlarini yanada takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga va boshqa qonunlariga ijaraga oluvchi tomonidan ijaraga olingan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga bo'lgan o'z huquqlari va majburiyatlari yer uchastkasidan foydalanish maqsadlari o'zgartirilmagan holda boshqa shaxsga o'tkazilishi (qayta ijaraga berilishi) mumkinligini, shuningdek qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishda ochiq elektron tanlov o'miga elektron onlayn-auksionlar joriy etilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Bundan tashqari eng yaxshi taklifni tanlab olish yo'li bilan aniqlanadigan yirik investitsiya loyihasini amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslarga yer uchastkalarini to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berishda ijaraga oluvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga mablag'lar to'lanishi nazarda tutilmoqda.

Mazkur Qonun yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlashga, shuningdek yer uchastkalarini ijaraga berish shartlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

1-moddada O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan 598-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, № 5-6, 82-moddada; 2003-yil, № 9-10, 149-moddada; 2004-yil, № 5, 90-moddada; 2005-yil, № 1, 18-moddada; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 12, 608-moddada; 2009-yil, № 1, 1-moddada, № 12, 472-moddada; 2011-yil, № 1, 1-moddada; 2014-yil, № 1, 2-moddada, № 9, 244-moddada; 2015-yil, № 8, 312-moddada; 2017-yil, № 9, 510-moddada; 2018-yil, № 1, 1-moddada, № 4, 224-moddada, № 7, 432-moddada, № 12, 781-moddada; 2019-yil, № 1, 1-moddada, № 3, 161-moddada, № 4, 199-moddada, № 8, 469-moddada, № 11, 792-moddada; 2020-yil, № 9, 540-moddada; 2021-yil, № 1, 3-moddada, 4-songa ilova, № 8, 800-moddada; 2022-yil, № 6, 570, 577-moddalar; 2023-yil, № 10, 795-moddada, № 11, 919-moddada) quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilysin:

1) 23-moddada ikkinchi qismning 3-bandidagi "ochiq elektron tanlov va" degan so'zlar chiqarib tashlansin;

2) 24-moddada ikkinchi qismning:

1-bandidagi "ochiq elektron tanlov" degan so'zlar "elektron onlayn-auksion" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

(Davomi 2-betda).



## Aks sado

## MDH sammiti:

## KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUHIM PLATFORMA

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining kuni kecha bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida ko'p qirrali munosabatlarning holati va rivojlanish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu sammitdagi nutqida Rossiyaning MDHga raisligi davrida ko'p tomonlama hamkorlik barcha yo'nalishda rivojlanganini yuqori baholab, bir qator muhim tashabbus va takliflarni ilgari surdi. Bu haqda Oliy Majlis palatalari vakillari o'zlarining fikrlarini shunday ifoda etishdi.

4-sahifaga qarang.



## YIRIK GIDROENERGETIKA LOYIHASI

## Jahon standartlari asosida amalga oshirilmoqda



Mamlakatimizda keyingi yillarda energetika tarmog'ining muhim qismi hisoblangan gidroenergetika sohasini jadal rivojlantirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni izchil oshirish, yangi ekologik toza ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, bu borada yangi GESlar qurilishida zamonaviy ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

## Yangi quvvatlar

Ayni paytda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi "Chotqol daryosida Quyi Chotqol GES qurilishi" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Chotqol daryosining belgilangan hududida qurilish ishlari jadal sur'atlarida olib borilayotir.

Ushbu loyihada O'zbekistonda ilk bor

jahon standartlari asosida to'g'on hamda GES binosi yaxlit inshoot sifatida qurilib, 4 ta — har biri 22,5 MVt quvvatga ega zamonaviy, yuqori samarador gidroagregatlar o'rnatiladi hamda avtomatik boshqaruv tizimi joriy qilinadi.

Gidrotexnik inshootning o'rnatilgan quvvati 90 MVt bo'lib, yillik o'rtacha elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 300 mln. kVt-soatga teng, — deydi "O'zbekgidroenergo" AJ

boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari Bekzod Amirsaidov. — Bu ko'rsatkich, ya'ni GES quvvati kelajakda o'rtacha 125 ming xonadonni elektr energiyasi bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, uning to'liq ishga tushirilishi 81,0 mln. m<sup>3</sup> gacha tabiiy gazni hamda 250 ming tonna ko'mirni iqtisod qilish imkoniyatini ham beradi. Inshoot gidrologik rejimga ta'sir qilmaydi va gidrobiologik obyektlarga zarar yetkazmaydi hamda atrof-muhit va tabiat o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Qolaversa, GES obyektiga olib boruvchi hamda qurilish ishlari uchun muhim bo'lgan avtotransport yo'llari barpo etildi. GES faoliyati uchun zaruriy hisoblangan ochiq taqsimlash qurilmasi (OTQ) maydonining yer ishlari tugallanib, tayyor holatga keltirildi.



O'zbekiston Respublikasining QONUNI

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijara berish tartibining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

2-bandi: uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin; to'rtinchi xatboshisi uchinchi xatboshi deb hisoblansin; quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirilsin: "Qiyamati kamida 10 million AQSH dollari ekvivalentida bo'lgan, eng yaxshi taklifni tanlab olish yo'li bilan aniqlanadigan yirik investitsiya loyihasini amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslarga yer uchastkalarini ijara berishda ushbu yer uchastkalarini ijara olish huquqining baholovchi tashkilot tomonidan aniqlanadigan bozor qiymatiga nisbatan koeffitsiyentlarda belgilanadigan miqdordagi mablag' ijara oluvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga to'lanadi. Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi";

uchinchi - o'n yettinchi qismlari tegishincha to'rtinchi - o'n sakkizinchi qismlar deb hisoblansin; quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilsin: "Qiyamati kamida 10 million AQSH dollari ekvivalentida bo'lgan, eng yaxshi taklifni tanlab olish yo'li bilan aniqlanadigan yirik investitsiya loyihasini amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslarga ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan qoidalar qo'llaniladi";

beshinchi - o'n sakkizinchi qismlari tegishincha oltinchi - o'n to'qqizinchi qismlar deb hisoblansin; oltinchi qismining ikkinchi jumlasini quyidagi tahrirda bayon etilsin: "Mazkur shaxslar (bundan xalqaro birlashmalar va tashkilotlar mustasno) yer uchastkasini ijara olish huquqining baholovchi tashkilot tomonidan aniqlanadigan bozor qiymatiga nisbatan koeffitsiyentlarda belgilanadigan miqdordagi mablag'larni O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga to'lashi kerak";

uchinchi - o'n yettinchi qismlari tegishincha ikkinchi - yettinchi qismlar deb hisoblansin; quyidagi mazmundagi yettinchi va sakkizinchi qismlar bilan to'ldirilsin: "Yer uchastkasiga ijara huquqining bozor qiymatiga nisbatan tegishli koeffitsiyentini belgilashda yer uchastkasining tuproq bonitirovkasi, ma'muriy-hududiy tuzilishi va infratuzilma obyektlari mavjudligi inobatga olinadi.

Yer uchastkasini ijara olish huquqining bozor qiymatiga nisbatan koeffitsiyentlarda belgilangan miqdordagi mablag'lar summasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yer uchastkasini berish to'g'risidagi qarorida ko'rsatilishi shart; yettinchi - o'n to'qqizinchi qismlari tegishincha to'qqizinchi - yigirma birinchi qismlar deb hisoblansin; to'qqizinchi qismidagi "ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida" degan so'zlar "ikkinchi, to'rtinchi va oltinchi qismlarida" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

o'n ikkinchi qismidagi "to'qqizinchi qismida" degan so'zlar "o'n uchinchi va o'n to'rtinchi qismlarida" degan so'zlar bilan almashtirilsin; quyidagi mazmundagi o'n to'rtinchi qism bilan to'ldirilsin: "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlar ushbu Kodeksning 245-moddasida belgilangan tartibda ijara oluvchi tomonidan boshqa shaxsga o'tkazilishi (qayta ijara berilishi) mumkin;

o'n to'rtinchi - yigirma birinchi qismlari tegishincha o'n beshinchi - yigirma ikkinchi qismlar deb hisoblansin; 3) quyidagi mazmundagi 245-moddada bilan to'ldirilsin: "245-moddada. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish)

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasining ijarchisi ijara olish shartnomasi bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlarini yer uchastkasidan asosiy foydalanish maqsadini o'zgartirmagan holda, yer uchastkasini ijara olish shartnomasi muddati doirasida boshqa shaxsga o'tkazishi (qayta ijara berishi) mumkin, bundan ushbu Kodeks 24-moddasining oltinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Bunda: ijara oluvchi yer uchastkasidan kamida uch yil o'zi foydalanagan bo'lishi shart, mazkur muddat yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran hisoblanadi; yuridik shaxslarga elektron onlayn-auksion, ochiq elektron tanlov yoki tanlov o'tkazmasdan davlat organlarining qarorlariga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri ijara berilgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazishga (qayta ijara berishga) yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran besh yildan keyin yo'l qo'yiladi;

ijara oluvchi ochiq elektron tanlov natijalariga ko'ra ijara muddati bo'yicha eng taqsimlanadigan qo'shimcha to'lovlarni yoki elektron onlayn-auksion natijalariga ko'ra bo'lib-bo'lib to'lash nazarda tutilgan to'lovlarni bir yo'la to'lashi shart.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) maqsadini saqlab qolgan holda, ijara shartnomasi amal qiladigan muddatga boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish); yigirmanchi xatboshisi yigirma birinchi xatboshi deb hisoblansin.

3-moddada. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-mayda qabul qilingan "Yaylovlar to'g'risida"gi O'RQ-538-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 5, 263-moddada; 2020-yil, № 9, 540-moddada; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 800-moddada; 2022-yil, № 6, 577-moddada) 13-moddasining ikkinchi qismidagi "ochiq elektron tanlov" degan so'zlar "elektron onlayn-auksion" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

4-moddada. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 1-aprelda qabul qilingan "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi O'RQ-680-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 4, 286-moddada; 2022-yil, № 11, 1061-moddada; 2023-yil, № 11, 919-moddada) 22-moddasining birinchi qismi quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan to'ldirilsin: "dehqon xo'jaligiga ijara berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni yer uchastkasining asosiy mo'ljallangan maqsadini saqlab qolgan holda, belgilangan tartibda boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish)".

5-moddada. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyunda qabul qilingan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-781-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 6, 576-moddada) 23-moddasi birinchi qismining uchinchi xatboshisidagi "(bundan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga bo'lgan ijara huquqi mustasno)" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

6-moddada. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-noyabrda qabul qilingan "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi O'RQ-803-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 11, 1064-moddada) quyidagi qo'shimchalar va o'zgartirish kiritilsin: 1) 10-moddaning oltinchi xatboshisi "ijara huquqi" degan so'zlardan keyin "shu jumladan ijara olingan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) natijasida yuzaga keladigan ijara huquqi" degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

2) 31-moddada quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilsin: "Yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) natijasida yuzaga keladigan ijara huquqi" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

2-moddada. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan "Fermar xo'jaligi to'g'risida"gi 602-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda qabul qilingan 662-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 9, 162-moddada; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006-yil, № 3, 119-moddada; 2007-yil, № 12, 608-moddada; 2008-yil, № 12, 640-moddada; 2009-yil, № 12, 472-moddada; 2011-yil, № 9, 248-moddada; 2012-yil, № 9/1, 238-moddada; 2013-yil, № 10, 263-moddada; 2015-yil, № 8, 312-moddada; 2016-yil, № 12, 383, 385-moddalar; 2018-yil, № 4, 224-moddada; № 12, 781-moddada; 2019-yil, № 4, 199-moddada; № 12, 886-moddada; 2020-yil, № 1, 2-moddada; № 9, 540-moddada; № 11, 652-moddada; 2021-yil, 4-songa ilova; 2022-yil, № 6, 570-moddada) quyidagi o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin: 1) 4-moddada ikkinchi qismining ikkinchi jumlasini chiqarib tashlansin;

2) 11-moddaning: birinchi qismidagi "ochiq elektron tanlov" degan so'zlar "elektron onlayn-auksion" degan so'zlar bilan almashtirilsin; uchinchi qismidagi "ochiq elektron tanlov" degan so'zlar "elektron onlayn-auksion" degan so'zlar bilan almashtirilsin; 3) 16-moddada birinchi qismining: beshinchi xatboshisi quyidagi mazmundagi beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan almashtirilsin: «ixtisoslashuvni hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishni mustaqil ravishda amalga oshirish; mahsulotni qayta ishlovchi korxonalar va o'z mahsulotlari (ishlari, xizmatlari) iste'molchilarini mustaqil ravishda tanlash»; oltinchi - o'n to'qqizinchi xatboshilari tegishincha yettinchi - yigirmanchi xatboshilar deb hisoblansin; quyidagi mazmundagi yigirmanchi xatboshi bilan to'ldirilsin: "ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga nisbatan huquqlari va majburiyatlarini yer uchastkasining asosiy mo'ljallangan maqsadini saqlab qolgan holda, ijara shartnomasi amal qiladigan muddatga boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish); yigirmanchi xatboshisi yigirma birinchi xatboshi deb hisoblansin.

3-moddada. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-mayda qabul qilingan "Yaylovlar to'g'risida"gi O'RQ-538-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2019-yil, № 5, 263-moddada; 2020-yil, № 9, 540-moddada; 2021-yil, 4-songa ilova, № 8, 800-moddada; 2022-yil, № 6, 577-moddada) 13-moddasining ikkinchi qismidagi "ochiq elektron tanlov" degan so'zlar "elektron onlayn-auksion" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

4-moddada. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 1-aprelda qabul qilingan "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi O'RQ-680-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, № 4, 286-moddada; 2022-yil, № 11, 1061-moddada; 2023-yil, № 11, 919-moddada) 22-moddasining birinchi qismi quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan to'ldirilsin: "dehqon xo'jaligiga ijara berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni yer uchastkasining asosiy mo'ljallangan maqsadini saqlab qolgan holda, belgilangan tartibda boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish)".

5-moddada. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyunda qabul qilingan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-781-sonli Qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 6, 576-moddada) 23-moddasi birinchi qismining uchinchi xatboshisidagi "(bundan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga bo'lgan ijara huquqi mustasno)" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

6-moddada. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-noyabrda qabul qilingan "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi O'RQ-803-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2022-yil, № 11, 1064-moddada) quyidagi qo'shimchalar va o'zgartirish kiritilsin: 1) 10-moddaning oltinchi xatboshisi "ijara huquqi" degan so'zlardan keyin "shu jumladan ijara olingan yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) natijasida yuzaga keladigan ijara huquqi" degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

2) 31-moddada quyidagi mazmundagi beshinchi qism bilan to'ldirilsin: "Yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) natijasida yuzaga keladigan ijara huquqi" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

7-moddada. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yatkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

8-moddada. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: ushbu Qonun 1-moddasi 2-bandining sakkizinchi xatboshisida nazarda tutilgan Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish tartibini ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin bir oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin; ushbu Qonun 1-moddasi 3-bandining to'qqizinchi xatboshisida nazarda tutilgan Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan ijara olingan yer uchastkasiga nisbatan o'z huquqlari va majburiyatlarini ijara oluvchi tomonidan boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) tartibini ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin bir oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlari ta'minlasin.

9-moddada. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent shahri, 2024-yil 9-oktabr № O'RQ-973

Yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) natijasida yuzaga keladigan ijara huquqi" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

3) 33-moddada quyidagi tahrirda bayon etilsin: «33-moddada. Xususiy lashtirilgan yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqlarning boshqa shaxsga o'tishini belgilovchi hujjatlar va uning o'ziga xos xususiyatlari Xususiy lashtirilgan yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqlarning boshqa shaxsga o'tishini belgilovchi hujjatlar quyidagilardan iborat: xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasining yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqning notarial tartibda tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasi; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni hadya etishga oid notarial tartibda tasdiqlangan shartnoma; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni ayirib boshlashga oid notarial tartibda tasdiqlangan shartnoma; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasining yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqning notarial tartibda tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasi; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasiga doir huquqning boshqa shaxsga renta haqi to'lanishi sharti bilan berilishi nazarda tutiladigan, notarial tartibda tasdiqlangan renta shartnomasi; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni meros qilib olish huquqi to'g'risidagi hamda er-xotinning umumiy mulkida bo'lgan xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasining tegishli qismiga bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan guvohnoma; xususiy lashtirilgan yer uchastkasini unda joylashgan bino va inshoot bilan birga yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni yuridik tartibda tasdiqlangan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ulush sifatida berish to'g'risidagi (agar bu turar joy obyekti bo'lsa, notarial tartibda tasdiqlangan) shartnoma; xususiy lashtirilgan yer uchastkasini unda joylashgan bino va inshoot bilan birga yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni muassisa qaytarib berish to'g'risidagi (agar bu turar joy obyekti bo'lsa, notarial tartibda tasdiqlangan) shartnoma; jismoniy va yuridik shaxslarning mulkida bo'lgan (xususiy lashtirilgan), bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni realizatsiya qilish bo'yicha sud qarorlarini va boshqa organlarning qarorlarini ijro etish maqsadidagi savdolar yakuqlari to'g'risidagi bayonnomasi; sudning qarori yoki davlat ijrochisining qarori yoxud xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini, ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni berish to'g'risida undiruvchi va qarzdor o'rtasida tuzilgan, davlat ijrochisi tomonidan tasdiqlangan dalolatnoma».

7-moddada. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yatkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

8-moddada. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: ushbu Qonun 1-moddasi 2-bandining sakkizinchi xatboshisida nazarda tutilgan Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish tartibini ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin bir oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin; ushbu Qonun 1-moddasi 3-bandining to'qqizinchi xatboshisida nazarda tutilgan Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan ijara olingan yer uchastkasiga nisbatan o'z huquqlari va majburiyatlarini ijara oluvchi tomonidan boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) tartibini ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin bir oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlari ta'minlasin.

9-moddada. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent shahri, 2024-yil 9-oktabr № O'RQ-973

Yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) natijasida yuzaga keladigan ijara huquqi" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

3) 33-moddada quyidagi tahrirda bayon etilsin: «33-moddada. Xususiy lashtirilgan yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqlarning boshqa shaxsga o'tishini belgilovchi hujjatlar va uning o'ziga xos xususiyatlari Xususiy lashtirilgan yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqlarning boshqa shaxsga o'tishini belgilovchi hujjatlar quyidagilardan iborat: xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasining yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqning notarial tartibda tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasi; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni hadya etishga oid notarial tartibda tasdiqlangan shartnoma; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni ayirib boshlashga oid notarial tartibda tasdiqlangan shartnoma; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasining yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqning notarial tartibda tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasi; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasiga doir huquqning boshqa shaxsga renta haqi to'lanishi sharti bilan berilishi nazarda tutiladigan, notarial tartibda tasdiqlangan renta shartnomasi; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni meros qilib olish huquqi to'g'risidagi hamda er-xotinning umumiy mulkida bo'lgan xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasining tegishli qismiga bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan guvohnoma; xususiy lashtirilgan yer uchastkasini unda joylashgan bino va inshoot bilan birga yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni yuridik tartibda tasdiqlangan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ulush sifatida berish to'g'risidagi (agar bu turar joy obyekti bo'lsa, notarial tartibda tasdiqlangan) shartnoma; xususiy lashtirilgan yer uchastkasini unda joylashgan bino va inshoot bilan birga yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni muassisa qaytarib berish to'g'risidagi (agar bu turar joy obyekti bo'lsa, notarial tartibda tasdiqlangan) shartnoma; jismoniy va yuridik shaxslarning mulkida bo'lgan (xususiy lashtirilgan), bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni realizatsiya qilish bo'yicha sud qarorlarini va boshqa organlarning qarorlarini ijro etish maqsadidagi savdolar yakuqlari to'g'risidagi bayonnomasi; sudning qarori yoki davlat ijrochisining qarori yoxud xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini, ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni berish to'g'risida undiruvchi va qarzdor o'rtasida tuzilgan, davlat ijrochisi tomonidan tasdiqlangan dalolatnoma».

7-moddada. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yatkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

8-moddada. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: ushbu Qonun 1-moddasi 2-bandining sakkizinchi xatboshisida nazarda tutilgan Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish tartibini ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin bir oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin; ushbu Qonun 1-moddasi 3-bandining to'qqizinchi xatboshisida nazarda tutilgan Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan ijara olingan yer uchastkasiga nisbatan o'z huquqlari va majburiyatlarini ijara oluvchi tomonidan boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) tartibini ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin bir oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlari ta'minlasin.

9-moddada. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent shahri, 2024-yil 9-oktabr № O'RQ-973

Yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) natijasida yuzaga keladigan ijara huquqi" degan so'zlar chiqarib tashlansin.

3) 33-moddada quyidagi tahrirda bayon etilsin: «33-moddada. Xususiy lashtirilgan yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqlarning boshqa shaxsga o'tishini belgilovchi hujjatlar va uning o'ziga xos xususiyatlari Xususiy lashtirilgan yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqlarning boshqa shaxsga o'tishini belgilovchi hujjatlar quyidagilardan iborat: xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasining yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqning notarial tartibda tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasi; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni hadya etishga oid notarial tartibda tasdiqlangan shartnoma; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni ayirib boshlashga oid notarial tartibda tasdiqlangan shartnoma; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasining yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqning notarial tartibda tasdiqlangan oldi-sotdi shartnomasi; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasiga doir huquqning boshqa shaxsga renta haqi to'lanishi sharti bilan berilishi nazarda tutiladigan, notarial tartibda tasdiqlangan renta shartnomasi; xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni meros qilib olish huquqi to'g'risidagi hamda er-xotinning umumiy mulkida bo'lgan xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasining tegishli qismiga bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan guvohnoma; xususiy lashtirilgan yer uchastkasini unda joylashgan bino va inshoot bilan birga yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni yuridik tartibda tasdiqlangan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ulush sifatida berish to'g'risidagi (agar bu turar joy obyekti bo'lsa, notarial tartibda tasdiqlangan) shartnoma; xususiy lashtirilgan yer uchastkasini unda joylashgan bino va inshoot bilan birga yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni muassisa qaytarib berish to'g'risidagi (agar bu turar joy obyekti bo'lsa, notarial tartibda tasdiqlangan) shartnoma; jismoniy va yuridik shaxslarning mulkida bo'lgan (xususiy lashtirilgan), bo'sh turgan yer uchastkasini yoki ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni realizatsiya qilish bo'yicha sud qarorlarini va boshqa organlarning qarorlarini ijro etish maqsadidagi savdolar yakuqlari to'g'risidagi bayonnomasi; sudning qarori yoki davlat ijrochisining qarori yoxud xususiy lashtirilgan bo'sh turgan yer uchastkasini, ijara huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkasiga doir huquqni berish to'g'risida undiruvchi va qarzdor o'rtasida tuzilgan, davlat ijrochisi tomonidan tasdiqlangan dalolatnoma».

7-moddada. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yatkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

8-moddada. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: ushbu Qonun 1-moddasi 2-bandining sakkizinchi xatboshisida nazarda tutilgan Yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish tartibini ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin bir oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin; ushbu Qonun 1-moddasi 3-bandining to'qqizinchi xatboshisida nazarda tutilgan Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan ijara olingan yer uchastkasiga nisbatan o'z huquqlari va majburiyatlarini ijara oluvchi tomonidan boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) tartibini ushbu Qonun kuchga kirganidan keyin bir oy ichida ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlari ta'minlasin.

9-moddada. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV Toshkent shahri, 2024-yil 9-oktabr № O'RQ-973

Yer uchastkasiga nisbatan huquqlar va majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijara berish) natijasida yuzaga keladigan ijara huquqi" degan so'zlar chiqarib tashlansin.</

# TABIYIY RESURSLARNI ASRASH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH — BOSH MAQSADIMIZ



Atrof-muhitni muhofaza qilish, yer, suv, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosidan samarali foydalanish sohasidagi islohotlarni jadallashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash kabi masalalar ekologik xavfsizlik asosi hisoblanib, bu masalalarni hal etish maqsadida O'zbekiston Ekologik partiyasi o'zining Saylovoldi dasturida aniq maqsadlarni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan.

**"Tabiat uchun birlashaylik"** shiori ostida partiyamiz yurtimizning barqaror rivojlanishi, ekologik xavfsizligini ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan davlat siyosatini ro'yobga chiqarish, ekologik masalalarni hal etish nafaqat davlatning vazifasi, balki jamiyatning hamda har bir fuqaroning burchi bo'lishiga erishish yo'lida aniq va amaliy takliflarni, hayotiy tashabbuslarni ilgari surmoqda.

## Suv resurslarini boshqarish: maqsad sari hal qiluvchi g'oyalar va amaliy qadamlar

Jahon bankining tahlillariga ko'ra, 2050-yilga borib O'zbekistonda **svuga bo'lgan talab 59 kub kilometr dan 62-63 kub kilometr gacha oshadi** va mavjud suv resurslari sezilarli darajada kamayadi. Bunday vaziyatda faqat suvdan oqilona foydalanish va tejankorlik choralarining o'zi kamlik qiladi.

Mana shunday murakkab sharoitda eng to'g'ri va oqilona yechim — yer va suv resurslaridan foydalanish sohasidagi islohotlarni jadallashtirish, bu borada aniq vazifalarni amalga oshirishdir. O'zbekiston Ekologik partiyasi o'zining Saylovoldi dasturida ushbu yo'nalishda bir qator tashabbus va takliflarni ilgari surmoqda. Mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanishdagi bugungi real vaziyat, mavjud muammolardan kelib chiqib hal etilishi zarur bo'lgan vazifalarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturida tabiatning bebaho ne'mati bo'lgan **suv resurslaridan oqilona foydalanish, aholining toza ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash** hamda bu boradagi **mavjud muammolar yechimi** yuzasidan aniq takliflar ilgari surilmoqda.

Suv resurslari, ayniqsa, ichimlik maqsadlarida foydalaniladigan suv zaxiralarning taqchillashib borishi svuga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish yo'li bilan **ichimlik suvi resurslaridan oqilona foydalanish mexanizmini yaratishni** kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida oldimizga qo'yimoqda.

Mutaxassislar fikriga ko'ra mamlakatimiz suv resurslarining asosiy manbai bo'lgan **ikkita yirik daryo** — Amudaryo va Sirdaryo oqimi hozirgidan **15 foizga** qisqarishi mumkin. Shunday bo'lgan taqdirda butun Markaziy Osiyo bo'yicha aholi jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi **25 foizga**, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa **40 foizgacha** kamayib ketishi ehtimoli bor.

Saylovoldi dasturida suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan qator tashkiliy-huquqiy islohotlar olib borish taklif etilmoqda. Jumladan, **yangi suv havzalarini barpo etish va suvni barqaror boshqarish uchun irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish** choralarini taklif etilmoqda.

Ekopartiyaning **yomg'ir suvlaridan samarali foydalanish** dasturini ishlab chiqish, **2025-yildan qurilish maydoni 500 kvadrat metr dan ortiq bo'lgan uy, bino va obyektlarda yomg'ir suvlarini yig'ish tartibini joriy etish, yomg'ir suvidan foydalanishni davlat tomonidan rag'batlantirish** mexanizmlari va davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini joriy etish bo'yicha takliflari o'ta muhim hisoblanib, xorijiy davlatlar amaliyotida ham yomg'ir suvlaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Turkiyada **2 ming kvadrat metr dan ortiq ko'p qavatli uylar hamda yangi qurilayotgan binolarda yomg'ir suvini yig'ish tartibi** belgilangan. Germaniyaning Frankfurt aeroportida **yig'ilgan yomg'ir suvi** aeroportning ko'kalamzorlashtirilgan hududlarining **60 foizini** sug'orish va texnik suv o'rini qoplash imkonini beradi. Avstraliyada esa yomg'ir suvi shaharlarda **9 foiz**, shahardan tashqari **63 foiz** svuga bo'lgan talabni qondiradi.

Ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yurtimiz bo'ylab yomg'ingarchilik o'rtacha yillik hajmi **186 mm** ni tashkil

etadi. Hisob-kitoblarga ko'ra **1 kvadrat metr** tom sathidan o'rta hisobda **186 litr**ga teng yomg'ir suvini to'plash mumkin.

Agar biz hozirda ishlab chiqarish, uy xo'jaligi, maishiy, avtomobillarni yuvish kabilar maqsadlarda sarflanayotgan suvni yog'ingarchilik suvi hisobidan qoplasak, mamlakat bo'yicha sezilarli miqdorda toza ichimlik suvini tejashga erishamiz. Yomg'ir suvlarini to'plash odamlarning svuga bo'lgan munosabatini o'zgartiribgina qolmay, har bir yurtdoshimizni suvni tejash, yomg'ir suvlarini yig'ib foydalanishga undab, millionlab kubometr behuda yo'qotilayotgan qimmatbaho resurslardan samarali foydalanish madaniyatini oshiradi.

Hududlarda **yomg'ir suvidan foydalangan holda kichik yashil maydonlar va bog'lar barpo etish** ishlarini tashkil qilish va bunda turarjoylar va shaxsiy xo'jaliklarda **yomg'ir suvlarini yig'ish va foydalanish qurilmalari bilan jihozlangan** hamda undan foydalanib kelayotgan jismoniy va yuridik shaxslarni **rag'batlantirish tizimini joriy etish** mamlakatda **yashil maydonlarni** sezilarli ko'paytirishga, ularni barqaror saqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, qor-yomg'ir va sel suvlarini yig'ish imkoniyati mavjud

sathining pasayishi va sug'orish texnologiyalari keng joriy etilishi munosabati bilan **sug'oriladigan yerlarning gidrogeologik baholash tizimini ilmiy asosda qayta ishlab chiqish** ham, o'z navbatida, hayot uchun muhim bo'lgan suv resurslarini muhofaza qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yuqoridagi tashabbuslarni iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida suvdan samarali foydalanishga qaratilgan **Milliy dasturni ishlab chiqish orqali hayotga tatbiq etish** suv resurslaridan tizimli ravishda oqilona foydalanish siyosatini samarali amalga oshirishni ta'minlaydi.

Boshqa siyosiy partiyalarning suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi dasturiy vazifalariga, masalan, O'zLiDeP Saylovoldi dasturiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida "Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan fermer va dehqonlar xarajatining 50 foizini qoplab berish tartibini joriy etish tartibini o'rnatamiz" degan vazifa ilgari surilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Ekologik partiyasi aynan shu masala qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarning bir

qismni qoplash va berilgan subsidiyani qaytarish tartibida o'z yechimini topgani hamda 2022-yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan sug'orish texnologiyasini joriy etish ishlarini bajarish xarajatlari uchun subsidiya faqat bir marta Davlat byudjetidan "Agro-subsidiya" YAAT orqali ajratilishi belgilanganligi bilan hozirda o'ta dolzarb emas, deb hisoblaydi.

## Yer resurslari muhofazasi va cho'llanishga qarshi kurash choralarini kuchaytirish

Bugungi kunda **yerlarning degradatsiyasi, cho'llanish jarayonlari** dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlariga tahdid solmoqda. Achinarlisi, bu ko'p jihatdan inson omiliga bog'liq bo'lib, tabiatdan ayovsiz foydalanish oqibatida yuzaga kelgan suv va shamol eroziyasi cho'llanish jarayonlarini yanada tezlashtirmoqda.

Mutaxassislar fikricha, respublikamiz hududining **70 foizi** yoki **31,4 mln. gektar** tabiiy sho'rlanishga, qum ko'chkilari, changli bo'ronlar va garmesellar tarqalishi ta'siriga uchragan qurg'oqqil va yarimqurg'oqqil maydonlardan iborat. Qariyb **10 mln. gektar** yaylovlar tubdan yaxshilanishga muhtoj.

Mamlakatimizda tuproq sifatining

muhim ko'rsatkichi bo'lgan **tuproq unumdorligini oshirishga** yo'naltirilgan choralar ko'rilishiga qaramasdan tuproq unumdorligi yildan-yilga pasayib bormoqda. Jumladan, respublikada o'rtacha tuproq unumdorligi 1991-yilda **58 ballni** tashkil etgan bir vaqtda ushbu ko'rsatkich 2001-yilda **55 ball**, 2021-yilda esa **53,7 ball bo'lgan**. Shuningdek, hozirda sug'oriladigan yerlarning qariyb **53,2 foizi** turli darajada sho'rlangan, yaylovlarning esa **10,8 foizi** turli darajada degradatsiyaga uchragani bu borada faoliyatni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi mamlakatdagi **qishloq xo'jaligida sug'oriladigan maydonlardan yanada samarali foydalanish, foydalanishdan chiqqan yerlarni qayta foydalanishga kiritish** yer resurslaridan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Bunda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun **yerlarni ekishga tayyorlashda resurs va energiya tejankor, ekologiyaga bezarar bo'lgan "No-TILL"** (yerga minimal ishlov berish) kabi **innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish** taklifini ilgari suradi.

## Atmosfera havosini muhofaza qilish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri

O'zbekiston Ekologik partiyasi o'zining Saylovoldi dasturida **atmosfera havosini muhofaza qilish, ozon qatlami yemirilishi, "issiqxona gazlari" normadan ortiq chiqarilishining oldini olish** va bu borada tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni aniq belgilash maqsadida zamonaviy xalqaro standartlarga javob beruvchi yangi tahrirdagi **"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"**gi **qonuni** ishlab chiqish tashabbusini ilgari suradi. Bunda atmosfera havosi

Qolaversa, **yoqilg'i sifatiga e'tibor qaratish, an'anaviy uglevodorod yoqilg'ilaridan muqobil yoqilg'i turlariga o'tish, "yashil" energetikani keng joriy etish** tadbirlarini amalga oshirish zarur.

Bularning hammasi sanitariya-gigiyena va estetik jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, shaharning qurilish-arxitektura kompleksiga qo'shilib, atmosfera havosini muhofaza qilishda juda muhim rol o'ynaydi. Yashil o'simliklar shaharlarning mikroiqlimini ham yaxshilaydi. Daraxtlar issiq paytlarda atmosferaga ko'p miqdordagi suv bug'i chiqarib, kunduz kunlari havo namligini **20 – 30 foizga** oshiradi, haroratni bir necha daraja pasaytiradi.

Shaharlardagi yashil boyliklarning yana bir muhim va foydali xususiyati shuki, ular tovush va shovqinni **20 foizga** yutadi, daraxtlar qanchalik zich bo'lsa, shovqinni shuncha ko'p yutadi.

Shuning uchun ham partiyamiz **qurilish maqsadlarida daraxtlarni noqonuniy kesgan tadbirkorlarning yerga bo'lgan huquqini bekor qilish tartibini joriy qilishni** taklif etmoqda. Chunki ayrim quruvchi-tadbirkorlar tomonidan uy-joylarni qurishda qonunchilik talablariga rioya qilinmasdan, noqonuniy yo'llar bilan ko'plab daraxtlarni kesib tashlash holatlari uchramoqda.

**2030-yildan poytaxt va yirik shaharlarda ichki yonuv dvigatelli yengil avtomobillar harakatini, 2035-yildan esa mamlakatda ularning sotilishini taqiqlash tashabbusi** aholimiz sog'lig'ini muhofaza qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qulay atrof-muhit yaratishda va mamlakatda ekologik toza transport vositalarini ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, atmosfera havosi

musaffoligini ta'minlashga xizmat qiluvchi **havoga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdorini 2 barobarga kamaytirish**, me'yordan ortiqcha ifloslantiruvchi moddalarni chiqarganlik uchun **kompensatsiya to'lovlari 10 barobargacha oshirish** bo'yicha dasturiy vazifalarni amalga oshirish maqsadi ham partiya dasturining ayni bugungi kun uchun naqadar ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, partiyaning Saylovoldi dasturidagi **qum va tuz bo'ronlari ko'tarilishi xavfi yuqori bo'lgan hududlar xaritalarini ishlab chiqish**, bu joylarda davlat dasturlari asosida ihotazorlar, yashil qoplamalar barpo etilishiga erishish, **oqova suvlarni tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish va yangilarini qurish**, lokal oqova suv tozalash inshootlari bo'lmagan korxonalar faoliyatini **ekologik talablarga javob beradigan texnologiyalar joriy etilmaguncha to'xtatish** tartibi joriy etilishi atrof-muhit ifloslanishi bilan bog'liq muammolarning oldini olish va bartaraf etishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi o'zining Saylovoldi dasturi bilan **tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanishni bosh maqsadlaridan biri, deb hisoblaydi** hamda ona tabiatga befarq bo'lmagan barcha fuqarolarimizni ushbu ezgu maqsad atrofida birlashishga chaqiradi!

Navro'zbek YUSUPOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Noiba INOYATOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod.

## Biologik resurslar muhofazasida kreativ yondashuvlar zarur

O'zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan mamlakatimizning o'ziga xos noyob biologik xilmaxilligi ishonchli saqlanishini ta'minlash uchun O'zbekiston **Qizil kitobiga kiritilgan o'simliklardan foydalanishga va yovvoyi hayvonlarni ov qilishga muddatsiz moratoriy e'lon qilish** yuzasidan muhim takliflar ilgari surilmoqda.

O'zbekiston 1995-yil BM Tning Biologik xilma-xillik to'g'risidagi (1992-yil) Konvensiyasiga qo'shilgan davlat sifatida o'ziga bir qator, shu jumladan, biologik xilmaxillik ishonchli saqlanishini ta'minlash maqsadida mavjud muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni kengaytirish va yangilarini tashkil etish majburiyatini olgan.

Mamlakatimiz hududida 4500 ga yaqin yovvoyi o'simlik va 2000 dan ziyod zamburug' turlari, faunasida umurtqali hayvonlarning 714 turi, umurtqasiz hayvonlarning esa 15 mingdan ortiq turlari mavjud bo'lib, O'zbekiston Qizil kitobiga noyob va yo'qolib ketish arafasida bo'lgan **203 turdagi yovvoyi hayvonlar** hamda **313 turdagi yovvoyi o'simliklar** kiritilgan. Ta'kidlash joiz, so'nggi yillarda o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish maqsadida ularni tabiatdan olish uchun kvota miqdori talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ko'payib bormoqda. Zero, ushbu holat ayrim noyob o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlari uchun ular genofondi saqlab qolinishida xavflarni keltirib chiqarmoqda.

Qizil kitobga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish masalalarida, shu jumladan, noyob hayvon turlarini tabiatdan ajratib olish, xususan, ovlashga kvotalar berilishida kamchiliklar mavjud. Xususan Qizil kitobga kiritilgan qo'ng'ir ayiq, Markaziy Osiyo cho'l toshbaqasi, jayron kabi hayvonlar tartibsiz ravishda tabiatdan olinmoqda.

Shu o'rinda aytish kerakki, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida **Qizil kitobga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni ovlash uchun ruxsatnoma berishga besh yil muddatga moratoriy e'lon qilish g'oyasi** ilgari surilmoqda. O'zbekiston Ekologik partiyasi **Qizil kitobga kiritilgan o'simliklardan foydalanishga va yovvoyi hayvonlarni ov qilish muddatli, ya'ni besh yilga, muddatli moratoriy e'lon qilish samara bermaydi, deb hisoblaydi** hamda uni muddatsiz qilib belgilash lozimligini qat'iy ta'kidlaydi.

Partiyamiz bugungi kunda yoshi katta daraxt va butalarni boshqa joyga ko'chirib o'tqazish oqibatida ular shikastlantirilishi va qurib qolishi holatlarining oshib borayotganini hisobga olib, **10 yoshdan katta daraxtlarni ko'chirib o'tqazishni taqiqlash**, shuningdek, o'rab olingan qurilish maydonlaridagi daraxtlar turli usullarda qasdadan quritilayotganini, qurilish obyektlaridagi mavjud ko'karib turgan ko'p yillik daraxtlarni kesib tashlash holatlarining oldini olish maqsadida **qurilish maqsadlarida daraxtlarni noqonuniy kesgan tadbirkorlarning yerga bo'lgan huquqini bekor qilish tartibini joriy qilish va daraxtzorlar mavjud bo'lgan yer maydonlarining qurilish maqsadlarida realizatsiya qilinishini qonun bilan taqiqlash** tashabbusini ilgari suradi.

Bu, o'z navbatida, aholi punktlarining shundoq ham tabiiy kamayib borayotgan yashil maydonlarini saqlab qolish va ko'paytirishga, aholining qulay atrof-muhitga ega bo'lish bilan bog'liq konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

MDH sammiti:

# KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUHIM PLATFORMA

**Bahodir TOJIYEV,**  
Oliy Majlis Senatining Agrar va sust xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi:

– Davlatimiz rahbari o'z nutqida Rossiyaning mazkur tuzilmasiga raisligi davrida ko'p tomonlama hamkorlikning barcha yo'nalishida rivojlanishga erishilganini yuqori baholar ekan, aloqalarimizning istiqbolli bilan bevosita bog'liq bo'lgan qator tashabbuslarni bildirdi. Jumladan, MDH mamlakatlari xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liq vaziyatga alohida e'tibor qaratildi. Bu bejiz emas. Bugun dunyo bo'yicha

xavfsizlikka tahdidning turli ko'rinishlari namoyon bo'lib turibdi. Shu bois MDH davlatlari maxsus xizmatlari va vakolatli idoralari o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, bu tahdidlarga qarshi kurashish usullarini yanada takomillashtirish, kibernetik xavfsizlikni ta'minlash borasida kelishilgan choralar va dasturiy hujjatlarni qabul qilish muhimligi qayd etildi. Ayni chog'da iqtisodiy yo'nalishdagi hamkorlikni kuchaytirish ham bugun



nihoyatda dolzarb. Ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi joriy yilning boshidan buyon 16 foiz oshgani qayd etildi, albatta. Ammo MDH

davlatlari imkoniyatlarini hisobga oladigan bo'lsak, bu ko'rsatkichni yanada yaxshilash mumkin. Bu esa tarmoq kengashlari va qo'mitalari faoliyatini faollashtirishni talab etadi. Prezidentimizning kelgusi yil bahorida Toshkent shahrida "Innoprom" xalqaro sanoat ko'rgazmasi doirasida MDH iqtisodiy kengashi yig'ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o'tkazish tashabbusi ham ana shu maqsadga yo'naltirilgan bilan diqqatga sazovor.

**Anvar TO'YCHIYEV,**  
Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Oxirgi yillarda O'zbekiston MDH doirasidagi faoliyatini sezilarli darajada faollashtirdi. Buni mamlakatimizning so'nggi yetti yilda avval imzolangan 24 ta ko'p tomonlama hujjatga, MDH oliy organlarining 22 ta qarori va 20 dan ziyod sohaviy hamkorlik organlariga qo'shilgani misolida ham ko'rish mumkin.



Yana bir ma'lumot. Shu paytgacha ham mamlakatimiz yetakchisi tomonidan Davlat rahbarlari kengashi majlislarida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 90 dan ortiq turli tashabbuslar ilgari surilgan bo'lib, ularning o'z vaqtida va to'la amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida "yo'l xaritalari" qabul qilindi. E'tiborlisi shundaki, hozirga qadar ana shu tashabbuslarning 80 dan ortig'i hayotiy ro'yobini topdi.

Shu sa'y-harakatlar natijalarida ham namoyon bo'lmoqda. Masalan, so'nggi oylarda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan bo'lgan hamkorlik bilan 800 dan ortiq yangi korxonalar ishga tushirildi. Mamlakatimizning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi joriy yilning yetti oyida o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 15 foizdan ortiq o'sib, 15 milliard dollardan oshgani ham e'tiborga mo'lik.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Moskvada bo'lib o'tgan sammitida Prezidentimiz tomonidan aloqalarimizni yanada kengaytirishga qaratilgan ko'plab yangi tashabbuslar ilgari surildi. Ayni chog'da mamlakatlarimiz hamda xalqlarimiz farovonligiga yo'naltirilgan muhim qarorlar qabul qilindi.

Ishonamizki, ushbu tashabbus va qarorlar MDH o'rtasida barcha sohadagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish va pirovardida birgalikda taraqqiyotga erishmog'imizda dasturlamal bo'lib xizmat qiladi.

**Manzura SALIMOVA,**  
Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi:



– Sir emaski, bugun dunyoning turli mintaqalaridagi keskinlashib borayotgan ziddiyatlar barcha davlatlarning barqaror rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatyapti.

Shunday murakkab bir vaziyatda MDH doirasida o'zaro aloqalarini mustahkamlash, xavfsizlik va taraqqiyotga erishish yo'lida birgalikda kurashish har qachongidan ham muhim.

Mavjud vaziyatdan kelib chiqib, davlatimiz rahbari mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish bilan bog'liq bir qator takliflarni o'rtaga tashladi. Ular barcha a'zo davlatlar manfaatlariga birdek mos kelishi bilan ham katta ahamiyatga ega.

Majlisda gumanitar almashinuvni kengaytirish maqsadida Hamdo'stlik davlatlari madaniyati kunlarini o'tkazish taklif qilindi. Bu, o'z navbatida, sog'liqni saqlash, ta'lim, san'at, kino, turizm va sport sohalarida aloqalar yangi bosqichga ko'tarilishini anglatadi. Umuman, MDH davlatlari yetakchilarning bu galgi uchrashuvida asosiy natijalar sarhisob qilinishi barobarida, ko'p tomonlama hamkorligimizning aniq istiqbollari belgilab olindiki, bu barcha a'zo mamlakatlar uchun birdek manfaatlidir.

**Firdavs SHARIPOV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– MDH O'zbekiston uchun shunchaki muloqot, fikr almashish va qarashlarni solishtirish maydoni emas, balki ustuvor sohada amaliy hamkorlik qilishning g'oyat muhim instituti hisoblanadi.



Keyingi yillarda mamlakatimizning Hamdo'stlik ishidagi ishtiroki faollashdi. Prezidentimiz sa'y-harakati bilan MDHda yangi ishonch muhiti yaratildi. Bugungi kunda O'zbekiston MDH doirasida barcha sohada hamkorlikning ijobiy dinamikasini ta'minlab kelmoqda.

Davlatimiz rahbarining Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtiroki va ilgari surgan dolzarb va aniq takliflari, shubhasiz, mamlakatlarimiz hamda xalqlarimiz farovonligi yo'lida MDH makonida ko'p tomonlama munosabatlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Binobarin, mazkur anjumanda hamkorlikning iqtisodiy yo'nalishida birgalikdagi faoliyatni kuchaytirish ustuvor vazifa ekanini qayd etilib, MDH tarmoq kengashlari va qo'mitalari faoliyatini faollashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining kelgusi yil bahorida Toshkent shahrida "Innoprom" xalqaro sanoat ko'rgazmasi doirasida MDH iqtisodiy kengashi yig'ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o'tkazish taklifi yangi istiqbolli loyihalarni ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa mamlakatlarimizning innovatsion salohiyatidan yanada samarali foydalanish va sanoat kooperatsiyasining yangi shakllarini, eng avvalo, yuqori texnologiyalar sohasida rivojlantirishga turtki bo'ladi.

Prezidentimizning MDH sammitidagi nutqi ko'plab ezuq maqsadlarni ko'zlagani bilan muhim ahamiyatga ega. Uning yakunida MDH doirasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan bir qator bitim va qarorlar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishi va xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

**Muhammad VALIYEV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Moskva sammiti yangi tashabbuslarga va amaliy takliflarga boy bo'lganini diqqat bilan kuzatdik. Uchrashuv asosiy natijalarni sarhisob qilish va Hamdo'stlik doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikning keyingi rejalarini belgilab olish imkonini berdi.



Davlatimiz rahbari o'z nutqida qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, gumanitar almashinuvlarni kengaytirish

maqsadida Hamdo'stlik davlatlari madaniyati kunlarini o'tkazish taklifi MDHga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni

**Dilrabo XOLBOYEVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– So'nggi yillarda MDH tuzilmasiga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik yanada kengayib, yangi bosqichga chiqmoqda. Xususan, o'tgan davrda O'zbekistonning Hamdo'stlik ishidagi ishtiroki faollashdi. Mamlakatimiz MDHning tarmoqlar bo'yicha hamkorlikning 20 dan ortiq organlariga qo'shildi, 70 ga yaqin tuzilmasi faoliyatida to'liq qatnashib kelmoqda.



E'tiborlisi, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslar Hamdo'stlikka a'zo mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ro'yobga chiqarilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yaxshi qo'shinchilik, ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan ulkan

hissasi uchun tashkilotning oliy mukofoti – MDH Faxriy nishoni bilan taqdirlangani ham fikrimiz isbotidir.


Kuni kecha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ham davlatimiz rahbari tomonidan bir qator takliflar ilgari surildi. Jumladan, MDH mamlakatlari ekspertlari va tahlilchilarning uchrashuvlarini

muntazam uyushtirish hamda navbatdagi konferensiyani Samarqand shahrida sun'iy intellekti rivojlantirish masalalariga bag'ishlab o'tkazish taklif etildi.

Bilamizki, har bir soha rivojida ekspert va tahlilchilarning fikr-mulohazalari, olib borayotgan tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan aytganda, ular ishtirokida turli anjumanlar o'tkazish ko'zda tutilayotgani, albatta, o'zaro tajriba almashish, qizg'in fikrlashishga keng platforma yaratadi.

Qolaversa, sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni keng qo'llash orqali raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini oshirish, sohada malakali kadrlar tayyorlash hamda kreativ iqtisodiyot, "yashil" energetikani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Zulayho AKRAMOVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:



– Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ilgari surilgan takliflar nafaqat tashkilotning maqomini yanada oshirish, balki bugungi kun va istiqbolda unga a'zo mamlakatlar aholisining tinchligi va farovonligini ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlikni

saqlashga yo'naltirilganini aytish joiz.

Bundan bir yil avval Bishkekda o'tkazilgan MDH Davlat rahbarlari kengashining majlisida Prezidentimiz tomonidan qator muhim takliflar bildirilgan edi. Xususan, muqobil savdo-logistika yo'nalishlarini shakllantirish, qo'shilgan qiymatning qisqa va yanada samarali zanjirlarini yaratish, mamlakatlarimiz iqtisodiyotidagi bir-birini to'ldiradigan zaxiralardan imkon qadar yuqori darajada foydalanish, biznes aloqalarini rag'batlantirish haqida alohida to'xtalib

o'tilgandi.

Bu boradagi harakatlar yil davomida amalga oshirilgani hisobiga sezilarli natijalarga erishilganini yurtimizning MDH a'zolari bilan o'zaro tovar ayirboshlash hajmi yil boshidan buyon 16 foizga oshgani yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bishkek sammitida Hamdo'stlikning uzoq muddatli yangi kun tartibini ishlab chiqish uchun mamlakatlarimiz yetakchi tahlil markazlari va ekspertlari ishtirokida konferensiya tashkil etish imkoniyatini ko'rib chiqish taklif qilindi. Bu borada ko'rilgan choralar natijasida yaqinda Toshkent

MDH davlatlari yetakchi tahliliy markazlari konferensiyasiga muvaffaqiyatli ravishda mezbonlik qilindi.

Erishilgan natijalar bilan cheklanib qolmay yangi loyihalar orqali samaradorlikni yanada oshirishga doir takliflar bu gal ham bildirilgani diqqatga sazovor. Jumladan, Toshkent shahrida MDH Iqtisodiy kengashi yig'ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o'tkazish taklifi ilgari surilgani ayni muddao bo'ldi. Zero, bu tadbirlar doirasida a'zo mamlakatlar bilan sohadagi hamkorlik borasida muhim natijalarga erishiladi, albatta.

boyidi. Davlatlararo munosabatlarda prinsipial jihatdan o'ziga xos sahifa ochildi, keng ko'lami va samarali sheriklikni kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan taklif va tashabbuslar qisqa muddatda butun mintaqada uyg'un iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash, o'zaro manfaatli va ishonchli hamkorlikni, millatlararo do'stlik rishtalarini mustahkamlashda qo'l kelishiga ishonchimiz komil.

"Xalq so'zi".

## Dunyo nigohi O'zbekiston MDH doirasidagi aloqalarni o'zaro manfaatlar asosida rivojlantirish tarafdori

Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-8-oktabr kunlari bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari sammitdagi nutqida, Rossiyaning Hamdo'stlikka raisligi yakunlarini yuqori baholash barobarida, MDH davlatlarining xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratdi, shuningdek, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni faollashtirish bo'yicha qator muhim takliflarni ilgari surdi.

Xalqaro ekspertlar ta'kidga ko'ra, O'zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar pragmatik va dolzarb bo'lib, zamonaviy chaqiriqlarni oldindan ko'ra bilishga qaratilgan.

**Antonio ALONSO,**  
San-Pablo universiteti professori (Ispaniya):

– O'zbekiston yetakchisi o'z nutqida hamkorlikning iqtisodiy jihatlari asosiy o'rinlardan birini egalladi. Respublikaning yil boshidan buyon MDH mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 16 foizga o'sgani va sanoat kooperatsiyasining muvaffaqiyatli namunalari yanada rivojlanish uchun salmoqli salohiyat mavjudligini bildiradi.



2025-yil bahorida Toshkent shahrida "Innoprom" xalqaro sanoat ko'rgazmasi doirasida MDH Iqtisodiy kengashi yig'ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o'tkazish taklifi O'zbekistonning kooperatsiyani yanada mustahkamlash, kreativ va raqamli yechimlarni ilgari surish istagidan dalolat beradi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan gumanitar sohada tilga olingan, ta'lim, sport, sog'liqni saqlash va san'at jabhalarida madaniy almashinuvlarni kengaytirish, qo'shma tadbirlar o'tkazishga qaratilgan tashabbuslar ham muhim ahamiyatga ega. Shaxmat va futbol bo'yicha yoshlar jamoalari o'rtasida MDH ochiq kubogi musobaqalarini o'tkazish bo'yicha tashabbuslar O'zbekiston yoshlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga tayyor ekanini ko'rsatadi.

**Solih YILMAZ,**  
Rossiya va MDH mamlakatlarini o'rganish instituti direktori (Turkiya):

– Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko'zlagan va pragmatik tashqi siyosati, prinsipial siyosiy irodasi tufayli O'zbekiston MDHga a'zo barcha davlatlar bilan ko'p qirrali hamkorlikni jadal rivojlantirishga erishdi.



O'zbekiston rahbari MDHning joriy sammitida a'zo davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha yuzaga kelayotgan vaziyatga alohida e'tibor qaratib, maxsus xizmatlari va vakolatli idoralari o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, zamonaviy muammolarni hal qilish, xavfsizlikni ta'minlash sohasida muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni ko'rishni takomillashtirish muhimligini ta'kidladi.

Shuningdek, O'zbekiston rahbari tuzilma doirasidagi hamkorlikning iqtisodiy yo'nalishi ustuvor vazifa bo'lib kelgani va shunday bo'lib qolishini, bu boradagi hamkorlikni kuchaytirish uchun MDH tarmoq kengashlari va qo'mitalari faoliyatini faollashtirish zarurligini bildirdi. Alohida ta'kidlash kerakki, MDH davlatlari yetakchi tahliliy markazlarining konferensiyasi Toshkentda tashkil etilgani va shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2025-yilda Toshkent shahrida MDH Iqtisodiy kengashi yig'ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o'tkazilishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonning MDH doirasidagi uzoq muddatli hamkorlikning yangi ustuvor yo'nalishlari, xususan, internet texnologiyalari va "katta ma'lumotlar" industriyasini rivojlantirish, raqamli yechimlarni jadal joriy etish, kreativ iqtisodiyot, "yashil" energetika va yadro texnologiyalari, iqlim muammolari va boshqalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflarni ham muhim deb bilaman.

**Sun CHJUANCHI,**  
Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktori:

– O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tig'iz kun tartibidagi Moskva shahrida bo'lib o'tgan MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisidagi ishtiroki yana bir muhim voqea bo'ldi. O'zbekiston yetakchisi o'z nutqida ustuvor yo'nalishlar – xavfsizlik, iqtisodiyot, madaniy-gumanitar yo'nalishlardagi hamkorlikning bir qator dolzarb masalalariga alohida to'xtaladi.



O'zbekiston rahbari, xususan, MDHdagi mavjud xavfsizlik holatiga e'tibor qaratib, Hamdo'stlik davlatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish muhimligini ta'kidladi. O'zbekiston rahbari tuzilma doirasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik haqida gapirar ekan, sog'liqni saqlash, ta'lim, san'at, kino, turizm va sport sohalarini har tomonlama qamrab oluvchi qo'shma tadbirlarning yillik dasturini qabul qilishni taklif etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan takliflar O'zbekiston MDHning faol, konstruktiv va mas'uliyatli ishtirokchisi ekanidan dalolat beradi. Aynan mana shu jihatlar mutanosiblik va pragmatizm bilan ajralib turadigan yangi O'zbekiston tashqi siyosatiga xosdir.

"Dunyo" AA.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-942. 12 918 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.  
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.25 Topshirildi — 23.50

1 2 3 4 5 6